



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



QO'CHQOROV Abbosjon Bahromjon o'g'li

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi
huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar
iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh yuriskonsulti,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: abbosbaxromovich77@gmail.com

RAQAMLI MUHITDA AMALIY BEZAK SAN'ATI ASARLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): QO'CHQOROV A.B.
Raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilish masalalari // Yurist
axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 158-169.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-017>

ANNOTATSIYA

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi amaliy bezak san'ati asarlarini saqlash, ommalashtirish va tijoratlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularni ruxsatsiz nusxalash, o'zgartirish va ishlab chiqarish xavfini ham keskin oshirdi. Keramika, zargarlik buyumlari, gilam, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, to'qimachilik mahsulotlari va boshqa hunarmandchilik obyektlarining yuqori aniqlikdagi tasvirlari hamda uch o'lchamli modellari internet orqali deyarli xarajatsiz tarqatilishi mumkin. Maqolada amaliy bezak san'ati obyektlarini raqamli muhitda himoya qilishning huquqiy, texnik, shartnomaviy va institutsional mexanizmlari kompleks tarzda o'rganiladi. Maqolada formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan. Raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilishning dolzarbligi, mualliflik huquqi obyektlarini raqamli muhitda himoya qilishning o'ziga xos tomonlari, muallifning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari, ularni himoya qilishdagi bir qator murakkablik va qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada birgina mualliflik huquqi yoki texnik vosita yetarli himoyani ta'minlamasligi asoslanadi. Shuningdek, blokcheyn, AI-monitoring, DRM, raqamli "watermark" va filtrlash kabi texnologiyalarni mualliflik huquqini himoya qilish vositasi sifatida rivojlantirish va tezkor platformaviy himoya mexanizmlarini joriy etish kabi bir qator takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: amaliy bezak san'ati, mualliflik huquqi, raqamli muhit, raqamli "watermark", blockchain, AI-monitoring, "fair use", mulkiy huquq, shaxsiy nomulkiy huquq, xalq ijodiyoti.

КУЧКОРОВ Аббосжон

Главный юрисконсульт Агентства по управлению отходами и развитию
циркулярной экономики при Национальном комитете по экологии
и изменению климата Республики Узбекистан,
Самостоятельный соискатель Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
E-mail: abbosbaxromovich77@gmail.com

ВОПРОСЫ ОХРАНЫ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПРИКЛАДНОГО ДЕКОРАТИВНОГО ИСКУССТВА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

АННОТАЦИЯ

Развитие цифровых технологий не только создало новые возможности для хранения, популяризации и коммерциализации произведений декоративно-прикладного искусства, но и резко увеличило риски их несанкционированного копирования, изменения и воспроизводства. Керамика, ювелирные изделия, ковры, вышивка, резьба по дереву, текстильные изделия и других объектов ремесленничества, а также трехмерные модели могут распространяться через интернет практически без затрат. В статье комплексно изучаются правовые, технические, договорные и институциональные механизмы защиты объектов декоративно-прикладного искусства в цифровой среде. В статье использованы формально-юридический, сравнительно-правовой, системный и функциональный методы анализа. Проанализированы актуальность защиты произведений декоративно-прикладного искусства в цифровой среде, особенности защиты объектов авторского права в цифровой среде, личные неимущественные и имущественные права автора, ряд сложностей и трудностей их защиты. В статье обосновывается, что одно только авторское право или техническое средство не обеспечивают достаточной защиты. Также блокчейн, выдвигается ряд предложений, таких как развитие таких технологий, как AI-мониторинг, DRM, цифровой водяной знак и фильтрация, в качестве инструмента защиты авторских прав и внедрение механизмов оперативной платформенной защиты.

Ключевые слова: декоративно-прикладное искусство, авторское право, цифровая среда, цифровой водяной знак, блокчейн, AI-мониторинг, справедливое использование, имущественное право, личное неимущественное право, народное творчество.

ABBOSJON Kuchkorov

Chief legal counsel of the Agency for Waste
management and development of circular
economy under the National committee on Ecology
and climate change of the Republic of Uzbekistan,
Independent researcher at the Training Institute for
lawyers under the Ministry of Justice
E-mail: abbosbaxromovich77@gmail.com

ISSUES OF PROTECTION OF WORKS OF APPLIED DECORATIVE ARTS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

ANNOTATION

The development of digital technologies has created new opportunities for the preservation, popularization, and commercialization of applied decorative art works, while also sharply increasing the

risks of their unauthorized copying, modification, and reproduction. Ceramics, jewelry, carpets, embroidery, wood carving, textiles and other craft objects, as well as three-dimensional models, can be distributed through the Internet at almost no cost. The article comprehensively examines the legal, technical, contractual, and institutional mechanisms for protecting applied decorative art objects in the digital environment. The article employed formal-legal, comparative-legal, systemic, and functional analysis methods. The relevance of protecting works of applied art in the digital environment, the specifics of protecting copyright objects in the digital environment, the author's personal non-property and property rights, and a number of complexities and difficulties in their protection are analyzed. The article argues that copyright or a technical tool alone does not provide sufficient protection. Also, blockchain, a number of proposals are put forward, such as the development of technologies such as AI monitoring, DRM, digital watermark and filtering as a means of copyright protection and the introduction of rapid platform protection mechanisms.

Keywords: applied decorative art, copyright, digital environment, digital watermark, blockchain, AI monitoring, fair use, property rights, personal non-property rights, folk art.

Raqamli muhit – internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, mobil ilovalar, elektron kutubxonalar, striming platformalari va sun'iy intellekt tizimlari orqali axborot yaratish, saqlash, qayta ishlash hamda tarqatish amalga oshiriladigan virtual makondir. Biror asarning raqamli nusxasini tayyorlash, ko'paytirish va dunyoning istalgan nuqtasiga yuborish juda tez va kam xarajat talab qilishi sababli raqamli muhit ijodkorlarga katta auditoriyaga chiqish imkonini bermiqda. Raqamli muhit litsenziya beruvchilar va foydalanuvchilarni tez topish, shartnoma va to'lovlarni avtomatlashtirishga yordam beradi [1].

Bugungi kunda amaliy bezak san'ati namunalarining katta qismining raqamli formati (foto, 3D model, virtual galereya, elektron katalog va boshqalar) paydo bo'lmoqda. Muzeylar, kutubxonalar, galereyalar va hunarmandlar o'z asarlarini internet orqali keng ommaga taqdim etmoqda. Natijada asarlar nafaqat raqamli muhitda saqlanmoqda, balki butun dunyo bo'ylab erkin tarqalmoqda. Ya'ni raqamli texnologiyalar san'at asarlarini saqlash va targ'ib qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. UNESCOning qayd etishicha, raqamli xaritalash, uch o'lchovli modellash va virtual muzeylar madaniy boyliklarni ommaga taqdim etishning yangi shakllarini rivojlantirmoqda.

Biroq raqamli muhit faqat imkoniyatlar maydoni emas. U san'at asarining egasi, muallifi, kelib chiqishi, haqiqiyli va undan foydalanish chegaralari bilan bog'liq yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli muhit asarlar ruxsatsiz ko'chirilishi va tarqatilishi xavfini ham oshiradi.

Boshqacha qilib aytganda, XXI asrning raqamli inqilobi intellektual faoliyat natijasida vujudga kelgan mahsulotlarni tarqatish va ulardan foydalanish shakllarini tubdan o'zgartirdi. Internet tarmog'i bir tomondan mualliflar uchun o'z ijodini ommaga keng yoyishga beqiyos imkoniyatlar yaratdi, ikkinchi tomondan esa mualliflik huquqlarining ommaviy ravishda buzilishi uchun qulay maydon hosil qildi [2].

Shuningdek, amerikalik huquqshunos va professor Pamela Samuelson ta'kidlaganidek, raqamlashtirish asarlarni nusxalash, tarqatish va bir formatdan boshqa formatga o'zgartirishni nihoyatda osonlashtiradi. Shu sababli amaliy bezak san'ati namunalarining elektron tasvirlari ustidan huquqiy nazorat o'rnatish alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilishning dolzarbligini quyidagilar bilan asoslash mumkin deb hisoblaymiz.

Birinchidan, raqamli muhitda mualliflik huquqi buzilishining osonligi.

Bu raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilishning eng muhim dolzarb omillaridan biri hisoblanadi. Ya'ni raqamli muhitda mualliflik huquqining buzilishi an'anaviy muhitga nisbatan ancha oson va tez sodir bo'ladi. Sababi, raqamli fayllar sifati yo'qotilmagan holda cheksiz nusxalanishi, soniyalar ichida internet orqali butun dunyo bo'ylab tarqatilishi va ularni asl nusxadan ajratish qiyin bo'lishidir. Natijada muallifning roziligisiz asarlardan foydalanish, ularni o'zgartirish, tijorat maqsadida qo'llash yoki boshqa shaxs nomidan e'lon qilish holatlari keskin ortmoqda. Shu bois, raqamli muhitda

amaliy bezak san'ati asarlarini huquqiy va texnologik vositalar orqali himoya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ikkinchidan, milliy madaniy merosning o'zlashtirilishi.

Bilamizki, O'zbekistonning kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, gilamdo'zlik, miniatyura va boshqa amaliy bezak san'ati turlari milliy madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning raqamli nusxalari nazoratsiz tarqalishi milliy madaniy boyliklarga katta xavf tug'diradi hamda ulardan noqonuniy foydalanishga olib kelishi mumkin.

Amaliy bezak san'ati xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, turmush tarzi va milliy o'zligini ifodalovchi muhim madaniy meros hisoblanadi. Kulolchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, kandakorlik, matoga naqsh tushirish kabi yo'nalishlarda yaratilgan buyumlar bir vaqtning o'zida ham kundalik foydalanish vositasi, ham badiiy asar vazifasini bajaradi. Shu sababli raqamli muhitda ushbu asarlarning haqiqiyliigi, kelib chiqishi va mualliflik huquqini ishonchli himoya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Uchinchidan, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining yaratilishi va keng foydalanilishi.

Generativ sun'iy intellekt (ChatGPT, Cloud, Midjourney, Stable Diffusion va boshqalar) millionlab tasvirlar asosida yangi vizual mahsulotlar yaratmoqda. Bunda amaliy bezak san'ati asarlari muallif roziligisiz ushbu tizimlarga kiritilib, ular asosida yangi mahsulotlar yaratilish va tijorat maqsadlarida foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa mualliflik huquqi bilan bog'liq yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

To'rtinchidan, elektron savdoning rivojlanishi.

Bugungi kunda Etsy, Amazon Handmade, eBay, Instagram, Telegram va boshqa platformalarda amaliy bezak san'ati mahsulotlari keng sotilmoqda. Raqamli tasvirlardan noqonuniy foydalanish orqali qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarilishi va sotilishi holatlari ko'paymoqda. Bu holat asl mualliflar va hunarmandlarning daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda raqamli himoya mexanizmlarisiz original asarlarni himoya qilishni qiyinlashtiradi.

Beshinchidan, ijodkorlik faoliyatiga bo'lgan rag'batning susayishi.

Asardan noqonuniy foydalanish orqali qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarilishi va original asardan ancha arzon sotilishi holatlari ko'payadi. Natijada muallifning daromadi kamayadi hamda muallifning ijodkorlikka bo'lgan rag'batini va ishtiyoqi susayadi.

Yuqoridagilar, albatta, eng muhim omillar hisoblanib, raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilishning dolzarbligini asoslovchi boshqa omillar ham mavjud.

Oddiy hayotda kitobni yoki boshqa bir mualliflik huquqi obyektini bir joydan ikkinchi joyga olib o'tish yangi nusxa yaratmaydi. Raqamli muhitda esa faylni yuklab olish, boshqa qurilmaga jo'natish yoki ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish jarayonida yangi raqamli nusxalar paydo bo'lishi mumkin.

BIMT tomonidan berilgan izohga ko'ra, muhofaza qilinadigan asarni elektron vositada raqamli shaklda saqlash ham asarni takrorlash sifatida baholanishi mumkin.

Demak, raqamli muhitda faylni nusxalash – takrorlash, internetga joylashtirish – omma e'tiboriga yetkazish, boshqa kanal yoki guruhga yuborish – tarqatish, rasm, video yoki musiqani o'zgartirib foydalanish – qayta ishlash yoki hosila asar yaratish bilan bog'liq huquqiy masalalarni yuzaga keltiradi.

Internetdagi rasm, video, musiqa yoki matnni ko'rish va texnik jihatdan yuklab olish mumkinligi undan istalgan maqsadda foydalanish mumkinligini anglatmaydi. Asarning ochiq saytda joylashtirilganligi faqat undan foydalanish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Bu muallif o'z huquqlaridan voz kechganini anglatmaydi. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, boshqa shaxslar asardan, qonunda nazarda tutilgan istisnolardan tashqari, huquq egasi bilan tuzilgan shartnoma yoki uning ruxsati asosida foydalanishi mumkin [4].

Ko'pchilik muallifning ismini ko'rsatsa, uning asaridan bimalol foydalanish mumkin deb hisoblaydi. Aslida muallif nomini ko'rsatish – uning shaxsiy nomulkiy huquqlariga rioya qilishdir. Asarni nusxalash, reklamada ishlatish yoki boshqa sahifaga joylashtirish uchun esa alohida ruxsat yoki litsenziya talab etilishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, mualliflik huquqi obyektlarini raqamli muhitda himoya qilishning o'ziga xos tomonlari va qiyinchiliklarining mavjudligidan tashqari amaliy bezak san'ati asarlarining ham o'ziga xos tabiatining mavjudligi ularning huquqiy himoyasini qiyinlashtiradi.

Amaliy san'at – badiiy xususiyat bilan amaliy maqsadni o'zida birlashtirgan mahsulotdir [5]. Ushbu ta'rif kashtachilik, zargarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, milliy liboslar, mebel, gilam va boshqa bezakli maishiy buyumlarni amaliy san'at asarlari sifatida tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin.

Amaliy san'at asarlarining “ikki tabiatli” ekanligi intellektual mulk obyektlari tizimidagi maqomini aniqlashni murakkablashtirish bilan birga, ular bu tabiati bilan intellektual mulk obyektlari tizimida “chegara holatdagi obyekt” sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni ular bir vaqtning o'zida ham san'at asari, ham moddiy va muayyan funksiyani bajaruvchi buyum hisoblanadi. Shu sababli ularni huquqiy tasniflash masalasida turli yondashuvlar mavjud. Odatda, amaliy san'at asarlari mualliflik huquqi obyektlari qatorida ko'riladi va adabiyot hamda san'at asarlariga teng maqomda himoya qilinadi [6].

Amaliy bezak san'ati esa amaliy san'atning bir turi bo'lib, unda buyumning badiiy bezagi, ornamenti va estetik yechimi asosiy ahamiyat kasb etadi. Amaliy bezak san'ati asarining asosiy maqsadi buyumni bezash va badiiy qiymatini oshirish hisoblanadi, unda milliy naqsh, ornament, kompozitsiya va estetik ifoda ustun turadi hamda u ham funksional, ham bezak xususiyatiga ega bo'ladi.

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, amaliy bezak san'ati asarlari funksional va estetik xususiyatlarni birlashtirishi sababli ularni huquqiy himoya qilish murakkab hisoblanadi. Huquqiy himoya buyumning umumiy vazifasi yoki texnik xususiyatlariga emas, balki muallifning mustaqil ijodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan original shakl, naqsh, kompozitsiya, ranglar uyg'unligi va boshqa badiiy elementlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda amaliy san'at asarlarining bir vaqtning o'zida funksional va estetik xususiyatlarga ega ekanligi bois bunday asarlarni himoya qilishda buyumning amaliy vazifasi bilan uning muallif ijodkorligini ifodalovchi badiiy elementlarini ajratish muhim hisoblanadi [7].

Shuningdek, olim Eleonora Rosatining fikriga ko'ra, amaliy san'at namunasini mualliflik huquqi bilan himoya qilishning markaziy mezonini uning originalligidir. Shuningdek, uning qayd etishicha, asarning qo'lda yoki raqamli vositalarda yaratilganligi emas, balki unda muallifning erkin va ijodiy tanlovlari ifodalanganligi muhim hisoblanadi [8].

Yuqoridagi fikrlarga, umuman olganda, qo'shilish mumkin. Haqiqatan ham, amaliy san'at asarlari ikki xil xususiyatni – funksional va badiiy xususiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli buyumning faqat texnik yoki funksional vazifasidan kelib chiqadigan elementlar bilan muallifning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan badiiy elementlarni farqlash mualliflik huquqi muhofazasi doirasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Aks holda, mualliflik huquqi orqali buyumning funksional yechimi ustidan asossiz ravishda monopol huquq o'rnatilishi mumkin.

Shuningdek, olim Eleonora Rosatining amaliy san'at asarlarini himoya qilishda originallik markaziy mezon bo'lishi haqidagi fikri ham asosli hisoblanadi. Asarning qo'lda, kompyuter dasturi yordamida yoki boshqa texnologik vositalar orqali yaratilganligi uning mualliflik huquqi obyekti sifatida tan olinishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Muhimi, asarda muallifning shaxsiyati, erkin va ijodiy tanlovlari namoyon bo'lishidir.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarga nisbatan ayrim e'tirozlarni ham bildirish mumkin. Birinchidan, amaliy buyumning funksional va badiiy elementlarini har doim ham aniq ajratish imkoni mavjud emas. Ayrim hollarda buyumning shakli bir vaqtning o'zida ham texnik vazifani bajaradi, ham estetik taassurot hosil qiladi. Masalan, chiroq, mebel yoki idish-tovoq dizaynida shaklning aynan qaysi qismi funksional, qaysi qismi esa ijodiy tanlov natijasi ekanligini aniqlash murakkab bo'lishi mumkin. Natijada sud yoki ekspertlarning subyektiv bahosi muhofaza hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Ikkinchidan, originallik mezonini haddan tashqari keng talqin qilish oddiy yoki kundalik dizayn yechimlarining ham mualliflik huquqi bilan himoyalaniishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, amaliy san'at asarlariga mualliflik huquqi bilan bir qatorda sanoat namunasi huquqi ham tatbiq etilishi mumkin. Shu bois mualliflik huquqi muhofazasini juda keng qo'llash sanoat namunalarini ro'yxatdan o'tkazish tizimining ahamiyatini pasaytirishi mumkin.

Shunday qilib, amaliy san'at asarlarini mualliflik huquqi bilan himoya qilishda originallik asosiy mezon sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq. Biroq eng maqbul yondashuv amaliy buyumning texnik vazifasini erkin foydalanishda qoldirish, uning individual va badiiy ifodasini esa mualliflik huquqi bilan himoya qilishdan iborat.

Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida Bern konvensiyasida amaliy san'at asarlari muhofaza qilinadigan adabiy va badiiy asarlar qatoriga bevosita kiritilgan. Shu bilan birga, Konvensiya bunday asarlarni muhofaza qilish ko'lamini va shartlarini milliy qonunchilik bilan belgilashga ruxsat beradi. Shu sababli ayni bir bezak buyumi bir davlatda mualliflik huquqi obyekti sifatida, boshqa yurisdiksiyada sanoat namunasi sifatida, uchinchi davlatda esa har ikkala huquqiy rejim asosida birgalikda muhofaza qilinishi mumkin [9].

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida manzarali-amaliy san'at asari amaliy foydalaniladigan buyum sifatida qo'llanadigan yoki shunday buyumlarga ko'chirilgan ikki yoki uch o'lchovli san'at asari, jumladan badiiy hunarmandchilik yoki sanoat usulida tayyorlangan asar sifatida ta'riflangan. Demak, amaliy bezak san'ati asari faqat tarixiy yoki maishiy buyum emas, balki mualliflik huquqi bilan bog'liq ijodiy faoliyat natijasi ham hisoblanadi.

Misol uchun, Rishtonning o'sha mashhur kulolchilik buyumlari nafaqat kundalik turmush ehtiyojlarni qondirish uchun amaliy yoki maishiy funksiyalarni bajaradi, balki ijodkorning badiiy estetikasi va ijodiy ifodasini birlashtiradi. Biroq, O'zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchiligida amaliy bezak san'ati asariga aniq huquqiy ta'rif berilmaganligi sababli, noaniq tushunchalar va noaniq xususiyatlar kabi muammolar ushbu asarlarning aniq va yagona ta'rifini shakllantirishni hamda ularning himoya chegaralarini aniq belgilashni qiyinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 62-moddasiga asosan quyidagilar mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish hisoblanadi:

mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;

ijrochining ismi-sharifga bo'lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;

huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektlarini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, ushbu Qonunga muvofiq shunday foydalanishga shartnoma tuzmasdan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno;

ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda haq to'lash to'g'risidagi talablarni buzish;

asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;

huquq egalari mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish.

Bilamizki, muallifning asarga nisbatan huquqlari ikki asosiy turga bo'linadi. Bular: shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy huquqlar.

Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari – muallifning shaxsi va uning asari bilan uzviy bog'liq huquqlardir. Ular mulkiy huquqlardan farq qiladi va mulkiy huquqlar boshqa shaxsga berilgan taqdirda ham u muallifda saqlanib qoladi. O'zbekiston qonunchiligida ham shu qoida belgilangan.

Kolumbiya universiteti professori, xalqaro mualliflik huquqi bo'yicha taniqli olim Jane Ginsburgning ta'kidlashicha, mualliflik huquqi asardagi iqtisodiy manfaatlarnigina emas, balki muallifning sha'ni va qadr-qimmati bilan bog'liq manfaatlarini ham himoya qilishi kerak [10].

Mazkur yondashuv, amaliy bezak san'ati asarlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlar ishlab chiqarish, tijorat va ommaviy iste'mol jarayonlariga keng jalb etilgani sababli ularning shakli, bezagi yoki kompozitsiyasiga turli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar bunday o'zgartirishlar muallifning badiiy g'oyasini buzsa yoki uning professional obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatsa, faqat iqtisodiy zarar bilan cheklanib qolish yetarli bo'lmaydi. Bunday holatda muallifning asar daxlsizligiga bo'lgan huquqi, muallif deb tan olinish huquqi va o'z nomini ko'rsatish huquqi ham himoya qilinishi lozim.

Shuningdek, muallifning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish ijod erkinligini rag'batlantiradi. Ijodkor o'z asari uning roziligisiz mazmunan buzilmasligi, noto'g'ri talqin qilinmasligi yoki boshqa shaxs nomidan tarqatilmasligiga ishonch hosil qilgandagina o'z ijodiy salohiyatini erkin namoyon eta oladi. Shu ma'noda shaxsiy nomulkiy huquqlar mualliflik huquqi tizimining iqtisodiy huquqlar bilan teng darajadagi, lozim bo'lsa, undan ham ustunroq muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Biroq olimning mazkur fikriga nisbatan ayrim qarshi mulohazalarni ham bildirish mumkin. Muallifning sha'ni va qadr-qimmati kabi tushunchalar subyektiv xususiyatga ega bo'lib, ularni amaliyotda aniq baholash murakkab. Muallif o'z asariga kiritilgan har qanday o'zgartirishni obro'siga zarar yetkazuvchi holat deb baholashi mumkin. Bu esa asardan qonuniy foydalanish, uni qayta ishlash, moslashtirish yoki yangi ijodiy asar yaratish imkoniyatlarini haddan tashqari cheklab qo'yishi ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin.

Professor, qiyosiy mualliflik huquqi bo'yicha mutaxassis Cyrill Rigamonti shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarni bir-biridan butunlay uzib qo'yish to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Ular bitta mualliflik-huquqiy tizimining turli tarkibiy qismlaridir: mulkiy huquqlar iqtisodiy foydalanishni, shaxsiy huquqlar esa muallif bilan asar o'rtasidagi ijodiy va ma'naviy aloqani himoya qiladi [11].

Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzishda muallif nomini ko'rsatmaslik uning tan olinish huquqini, boshqa shaxsni muallif deb ko'rsatish mualliflik huquqini, asarni buzib tahrirlash asar daxlsizligini hamda asarni muallif roziligisiz e'lon qilish uning oshkor etish huquqini buzish hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari asarning iqtisodiy qiymatini emas, balki muallifning shaxsi, nomi, qadr-qimmati, ijodiy qarashlari va asar bilan uzviy ma'naviy aloqasini himoya qiladi.

Shu bilan birga, muallifning mulkiy huquqlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak,

muallifning mulkiy huquqlari muallifga asardan foydalanish, undan daromad olish, boshqa shaxslarga foydalanishga ruxsat berish yoki foydalanishni taqiqlash imkonini beradigan mutlaq huquqlar hisoblanadi. Ya'ni muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga egadir.

Qonunchilikda nazarda tutilgan ayrim istisnolardan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoxud ular bo'lmagan taqdirda, bu tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlarini bajaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin.

Asarni takrorlash, tarqatish, omma oldida namoyish etish, barchaning e'tiboriga yetkazish, prokatga berish, qayta ishlash, tarjima qilish, haq olish va boshqa shu kabilar muallifning mulkiy huquqlari jumlasiga kiradi.

Misol uchun, rassom kulolchilik buyumlari uchun original naqsh yaratdi, tashkilot ushbu naqshni muallifning ruxsatisiz skanerlab, o'zining ishlab chiqargan buyumlariga bosib chiqardi. Bu holatda naqshning nusxalari muallifning ruxsatisiz nusxa ko'chirilganligi sababli muallifning takrorlash huquqi buziladi.

Muallifga asarni takrorlash, tarqatish va undan haq olish kabi mutlaq huquqlarning berilishi va himoya qilinishi yangi asarlar yaratilishini rag'batlantiradi.

Bu bo'yicha Garvard universiteti professori William Fisher ham bir qator fikrlar bildirib o'tgan. Unga ko'ra muallifga asarni ko'paytirish, tarqatish, sotish va litsenziyalash huquqi yangi asarlar yaratilishiga iqtisodiy rag'bat beradi. Biroq bunday huquqlar jamiyatning asarlardan foydalanish imkoniyatini haddan tashqari cheklamasligi kerak [12].

Muallifga o'z asarini ko'paytirish, tarqatish, sotish, ommaga namoyish etish hamda undan foydalanish uchun litsenziya berish bo'yicha mutlaq huquqlarning taqdim etilishi unga o'z mehnati va sarflagan mablag'idan daromad olish imkonini beradi. Natijada muallif, noshir, prodyuser, dasturchi yoki boshqa huquq egasi yangi ijodiy mahsulot yaratishga, uni takomillashtirishga va ommaga yetkazishga manfaatdor bo'ladi.

Masalan, naqsh yaratgan rassom yoki kulol biror bir fabrikaga undan chinni buyumlarda foydalanish uchun litsenziya yoki ruxsat beradi va buning evaziga haq oladi. Bunda muallif yangi bezak uslubini, ya'ni naqshni ishlab chiqish uchun vaqt va mablag' sarflaydi. Unga naqshni ommaviy takrorlash huquqi berilishi bu unga xarajatlarni qoplash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, mualliflik huquqi faqat huquq egasining manfaatini himoya qilishga xizmat qilmasligi kerak. Chunki adabiyot, ilm-fan, ta'lim, musiqa, san'at va boshqa ijodiy mahsulotlar jamiyatning madaniy va intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Agar muallifga berilgan mutlaq huquqlar haddan tashqari keng bo'lsa, asarlardan foydalanish narxi oshadi, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar uchun zarur materiallardan foydalanish qiyinlashadi, axborot va bilimlarning erkin tarqalishi cheklanadi.

Muallifga mulkiy huquqlar berilishining maqsadi faqat muallifni boy qilish emas, balki yangi asarlar yaratilishi, tarqatilishi va jamiyatga yetib borishi uchun zarur iqtisodiy sharoit yaratish ham hisoblanadi.

Masalan, talaba yoki tadqiqotchi ilmiy maqoladan iqtibos keltirishi, o'qituvchi dars jarayonida asarning ma'lum qismidan foydalanishi, kutubxona kitoblarni o'quvchilarga taqdim etishi yoki ijodkor avvalgi asardan ilhomlanib yangi asar yaratishi mumkin. Bunday holatlarning barchasini huquq egasining alohida ruxsatisiz taqiqlash jamiyat manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois mualliflik huquqi tizimida muallif manfaatlari bilan jamoatchilik manfaatlari o'rtasida oqilona muvozanat bo'lishi lozim. Bir tomondan, muallif o'z ijodiy mehnati uchun munosib haq olishi va asaridan noqonuniy foydalanishdan himoyalaniishi kerak. Ikkinchi tomondan esa jamiyat ta'lim olish, ilmiy izlanish olib borish, madaniy boyliklardan foydalanish va yangi ijodiy mahsulotlar yaratish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Mazkur muvozanat mualliflik huquqining amal qilish muddatini cheklash, asarlardan shaxsiy, ta'limiy, ilmiy yoki axborot maqsadlarida foydalanishga ruxsat berish, iqtibos keltirish, kutubxona va arxivlar faoliyatiga oid istisnolarni belgilash orqali ta'minlanadi. Mualliflik huquqi muddati tugagach, asarning jamoat mulkiga o'tishi ham jamiyatning undan erkin foydalanishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 25 – 33-moddalarida istisnolar belgilangan.

Unga ko'ra muallif va boshqa shaxslarning asardan foydalanish borasidagi mutlaq huquqlarini cheklashga ushbu Qonunning 25 – 33-moddalarida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Mazkur cheklashlar asardan normal foydalanilishiga o'rinsiz ziyon yetkazmagan va muallifning qonuniy manfaatlarini asossiz kamsitmagan taqdirdagina tatbiq etiladi. Bu anglo-sakson huquq tizimidagi va amerika huquqidagi "fair use" – "insofli foydalanish" qoidasiga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, mualliflik huquqlarining himoyasi masalasi nafaqat ijodkor uchun, balki jamiyatning madaniy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mualliflik huquqlarini himoya qilishda bir qator murakkablik va qiyinchiliklar mavjud.

Shulardan biri nusxa ko'chirishning osonligi. Asardan nusxa ko'chirishning osonligi adabiy matn, ilmiy maqola, surat, musiqa, video, dastur yoki boshqa ijodiy mahsulotni qisqa vaqt ichida, kam xarajat bilan va deyarli asl nusxadagi sifatni saqlagan holda ko'paytirish imkoniyatini anglatadi. Avvallari kitobdan nusxa olish uchun uni qo'lda ko'chirish, qayta terish yoki bosmaxonadan foydalanish kerak edi. Bugungi kunda esa elektron asarni bir necha soniyada nusxalash va boshqa hujjatga joylashtirish, skinshot yoki fotosuratga olish, fayl sifatida yuborish, internetga yuklash, boshqa shaklga o'zgartirish hamda tarjima qilish mumkin.

Internetdagi nihoyatda katta hajmdagi axborot va raqamli materiallardan foydalanish imkoniyati nusxalash va plagiat qilishni avvalgidan ancha osonlashtirganini tadqiqotchilar ham qayd etadi. Chunki internetda matn, rasm, video, musiqa yoki dasturiy mahsulotni bir necha soniyada ko'chirib, tarqatish mumkin.

Professor Jon Uorkmanning fikricha, internet akademik insofsizlikni o'z-o'zidan keltirib chiqarmaydi. Biroq u avvalgi usullarga qaraganda nusxa ko'chirishni nihoyatda osonlashtiradi [13].

Himoyadagi yana bir qiyinchiliklardan biri bu – asardan noqonuniy foydalangan huquqbuzarni aniqlashning qiyinligi.

Mualliflik huquqi buzilganini aniqlash bilan uni aynan kim sodir etganini aniqlash bir xil masala emas. Internetda asarning noqonuniy nusxasi topilishi mumkin, biroq uni joylashtirgan, ko'paytirgan, tarqatgan yoki tijorat maqsadida foydalangan shaxsni aniqlash ko'pincha murakkab texnik va protsessual tekshiruvni talab qiladi.

Ushbu muammo bir nechta omillar bilan izohlanadi. Shulardan biri huquqbuzarlikda bir nechta shaxslarning ishtirok etganligi. Raqamli muhitda "huquqbuzar kim?" degan savolning yagona javobi bo'lmazligi mumkin. Masalan, kimdir asarni nusxalaydi, ikkinchi shaxs faylni internetga yuklaydi, uchinchi shaxs reklama joylashtirib daromad oladi va hokazo. Bu holatda kim bevosita huquqbuzar, kim yordamchi, kim vositachi va kim faqat texnik xizmat ko'rsatuvchi ekanini ajratish lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, internetdagi profil nomi, elektron pochta manzili yoki telefon raqami har doim haqiqiy foydalanuvchiga tegishli bo'lmazligi hamda huquqbuzarlik boshqa davlat hududida turib sodir etilishi mumkinligi kabi omillar huquqbuzarni aniqlashni yana ham qiyinlashtiradi hamda haqiqiy huquqbuzarni aniqlashda ko'p vaqt va texnik imkoniyatni talab qiladi.

Shuningdek, mualliflik huquqlarini himoya qilishdagi yana muammolardan biri bu – mualliflikni isbotlash muammosi. Mualliflikni isbotlash muayyan asar aynan qaysi shaxsning ijodiy faoliyati natijasida yaratilganini dalillar orqali aniqlashdan iborat.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi asarni yaratish fakti bilan yuzaga keladi. Bu turdagi asarlarga mualliflik huquqini olish uchun biror-bir ro'yxatdan o'tkazish yoki boshqa rasmiyatchilikka rioya qilish talab etilmaydi. Asarning asl nusxasi yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, boshqa holat isbotlanmaguncha, uning muallifi hisoblanadi. Bu mualliflik prezumpsiyasi hisoblanadi.

Mazkur qoida muallifning huquqlarini yengillashtiradi, biroq barcha nizolarni hal qilmaydi. Chunki asarda ko'rsatilgan nom boshqa shaxs tomonidan qo'yilgan, o'zgartirilgan yoki soxtalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Mualliflik prezumpsiyasini maxsus o'rgangan olimlardan biri, chex huquqshunosi Rudolf Leskaning ta'kidlashicha, mualliflik prezumpsiyasi isbotlash yukini yengillashtiradigan protsessual vosita hisoblanadi [14].

Uning yondashuvidan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, muallif har safar sudga murojaat qilganda asarni yaratish jarayonini boshidan oxirigacha isbotlashi shart bo'lmazligi kerak, aks holda, mualliflik huquqini himoya qilish haddan tashqari qiyinlashishi mumkin.

Biroq mualliflik prezumpsiyasi nisbiy, ya'ni rad etilishi mumkin bo'lgan prezumpsiyadir. Bern konvensiyasidagi "qarshi isbotlar mavjud bo'lmagan taqdirda" degan qoida ham aynan shuni anglatadi.

Ya'ni unga ko'ra mazkur Konvensiya tomonidan muhofaza qilinayotgan adabiy va badiiy asarlarning muallifi, qarshi isbotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, muallif deb qaralishi va shunga muvofiq holda o'z huquqlarining buzilganligi sababli Ittifoq mamlakatlarida sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishi uchun, muallifning ismi asarda odatiy holda ko'rsatilgan bo'lishi kifoya. Mazkur band ushbu ism xatto taxallus bo'lgan taqdirda ham qo'llanadi, agar muallif tomonidan qabul qilingan taxallus uning shaxsiga nisbatan hech qanday shubha tug'dirmasa [9].

Shu bilan birga, asardagi g'oya, uslub va muayyan ifodani ajratish muammosi ham mualliflik huquqlarini himoya qilishni qiyinlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.

Ya'ni mualliflik huquqi odatda umumiy g'oya, uslub, janr yoki badiiy yo'nalishni emas, ularning muayyan shaklda ifodalanishini himoya qiladi. Tasviriy va amaliy san'atda esa g'oya bilan ifoda o'rtasidagi chegara juda noaniq.

Amaliy bezak san'ati asarlari bo'lgan kashtachilik, kulolchilik, zargarlik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, libos, mebel va boshqa bezak buyumlarida g'oya, uslub va muayyan ifoda bir-biriga juda yaqin ko'rinadi. Shu sababli plagiat yoki mualliflik huquqi buzilganini baholashda aynan qaysi ijodiy element ko'chirilganini aniqlash qiyinlashadi. Ya'ni san'at asarida uslub ham shakl, rang, kompozitsiya

va texnik yechimlar orqali namoyon bo'lgani uchun bu chegarani amalda aniq belgilash doim ham mumkin emas.

Ifoda shakli g'oya va uslubning aynan bir asarda konkret shaklga keltirilgan individual ko'rinishi hisoblanadi. U elementlarning tanlanishi, ularning joylashuvi, proporsiya va masshtab, kompozitsiya, ranglar kombinatsiyasi, naqsh ritmi, muallif yaratgan noodatiy detal, bir necha umumiy elementning original birikmasi va boshqalarni qamrab olishi mumkin.

Vizual asarlarda aynan shu chegarani aniqlash qiyin. G'oya va ifoda shakli o'rtasidagi farqni aniqlash tasviriy va haykaltaroshlik asarlarida ayniqsa murakkab, chunki bunday asarlar alohida elementlar ro'yxati emas, yaxlit vizual kompozitsiya sifatida idrok etiladi. Adabiy asarlar uchun ishlab chiqilgan o'xshashlik mezonlarini vizual asarlarga to'liq ko'chirish to'g'ri natija bermasligi mumkin.

Ba'zi olimlar vizual asarlardagi o'xshashlikni baholashda avval himoyalannmaydigan g'oya, fakt va umumiy elementlarni chiqarib tashlash, so'ng qolgan ijodiy ifodani taqqoslash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, adabiy asarlar uchun shakllangan o'xshashlik mezonlarini tasviriy, grafik va haykaltaroshlik asarlariga bevosita qo'llash qiyin, chunki inson tasvirni alohida shakl va ranglar yig'indisi emas, yaxlit kontekst sifatida qabul qiladi [15].

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, mualliflik huquqlarini himoya qilishda yana bir qator murakkablik va qiyinchiliklar mavjud. Xususan, turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi, plagiat va o'xshashlikni baholashdagi kamchiliklar, foydalanishdagi istisno va cheklovlarni talqin qilishning har xilligi, zarar miqdorini, shuningdek, xalq ijodiyoti va individual ijod asarlari o'rtasidagi chegarani aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda jamiyatdagi huquqiy madaniyatning yetarli emasligi kabilar shular jumlasiga kiradi.

Shunga ko'ra mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun turli davlatlar o'z tajribasida turli xil usul va vositalarni joriy etib qo'llab kelmoqda.

Buyuk Britaniyada Intellektual mulk idorasi (IPO) mualliflik huquqi, tovar belgisi, dizayn, patent va tijorat sirlariga oid nizolar uchun mediatsiya xizmatini taklif etadi. Mediator nizo yuzasidan qaror chiqarmaydi, balki taraflarga kelishuvga erishishda yordam beradi. Mediatorlar intellektual mulk sohasida tajribaga ega akkreditatsiyalangan mutaxassislar hisoblanadi. Shuningdek, muzokaralar masofadan turib ham o'tkazilishi mumkin.

Singapurda ham Intellektual mulk idorasi (IPOS) intellektual mulk nizolarida mediatsiyani sud yoki ma'muriy ko'rib chiqishga nisbatan tezkor, maxfiy va kam xarajatli muqobil sifatida qo'llaydi.

Singapur modeli faqat elektron ariza qabul qilish bilan cheklanmaydi. Unda ixtisoslashgan mediatorlar va ekspertlar, BIMT bilan hamkorlik, xalqaro va transchegaraviy nizolarni ko'rib chiqish hamda ayrim mediatsiya xarajatlarini davlat dasturlari orqali moliyalashtirish imkoniyatlari mavjud.

Shuningdek, Janubiy Koreyada Koreya mualliflik huquqi komissiyasi (KCC) mualliflik nizolarini ko'rib chiqish, mualliflik huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish, huquqlarni boshqarish va texnologik himoya siyosatini qo'llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi.

Ushbu Komissiyada mualliflik nizolariga ixtisoslashgan mediatsiya tizimi mavjud. Ishlar huquq, ilmiy soha va tegishli sanoat vakillaridan iborat bir yoki uch nafar mutaxassis ishtirokida ko'rib chiqilishi mumkin. Janubiy Koreyada bu mexanizmni tezkor, nisbatan arzon va maxfiylikni ta'minlovchi usul sifatida tavsiflaydi.

Bundan tashqari, Janubiy Koreyada alohida elektron mediatsiya tizimi mavjud bo'lib, u orqali mediatsiya arizasini elektron topshirish, ishning borishini kuzatish, onlayn mediatsiyaga o'tish, yakunlangan ishlar va tartiblar haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin.

Xitoy tajribasida blokcheyn asosan elektron dalillarni saqlash va sudda tekshirish vositasi sifatida rivojlangan. Xitoyda blokcheynda saqlangan elektron dalillarni qabul qilish va ularning ishonchligini tekshirish mezonlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 63-moddasiga ko'ra asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq

huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e'tirof etiladi.

Ya'ni blokcheyn, DRM tizimlari, shifrlash (encryption), raqamli watermark va fingerprint texnologiyalari, AI-monitoring kabilarning hammasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari hisoblanadi hamda ularni qo'llashni rivojlantirish mualliflik huquqlarini himoyasini kuchaytirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagi nazariy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, blokcheyn, AI-monitoring, DRM, raqamli "watermark" va filtrlash kabi texnologiyalarni mualliflik huquqini himoya qilish vositasi sifatida rivojlantirish;

ikkinchidan, mualliflik nizolari bo'yicha to'liq elektron mediatsiya platformasi tashkil etish;

uchinchidan, amaliy bezak san'ati asarlarining qonuniy raqamli katalogi, litsenziyalash va eksport platformasini yaratish;

to'rtinchidan, amaliy bezak san'ati asarining individual elementlarini huquqiy baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamlashtirish asarlarni ommalashtirish uchun katta imkoniyat yaratdi, biroq ayni vaqtda ularni noqonuniy nusxalash, o'zgartirish va tijoratlashtirish xavfini ham kuchaytirdi. Qolaversa, raqamli muhitning chegarasiz hamda amaliy bezak san'ati asarlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega ekanligi ushbu turdagi asarlarning huquqiy himoyasini yanada qiyinlashtiradi.

Shuningdek, raqamli muhitda amaliy bezak san'ati asarlarini himoya qilish nafaqat mualliflarning intellektual mulk huquqlarini ta'minlash, balki milliy madaniy merosni asrash, iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, elektron tijorat, sun'iy intellekt va raqamli arxivlar jadal rivojlanayotgan sharoitda blokcheyn, elektron raqamli imzo va AI-monitoring kabi zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish amaliy bezak san'ati namunalariining orginalligi, haqiqiyliigi, tarixiy qiymatini hamda ularga nisbatan mualliflik huquqini ishonchli saqlashning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, muallifning huquqlari, xususan mulkiy huquqlarining himoya qilinishi ijodkorni iqtisodiy rag'batlantiradi, asardan foydalanishni nazorat qilinishini ta'minlaydi va yangi asarlar yaratilishi, tarqatilishi va jamiyatga yetib borishi uchun zarur iqtisodiy sharoit yaratadi.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. Copyright Licensing in the Digital Environment // https://www.wipo.int/en/web/copyright/activities/copyright_licensing.
2. Энтин В.Л. Авторское право в виртуальной реальности (новые возможности и вызовы цифровой эпохи). М.: Статут, 2017. 9-с. // URL: <https://library.cbr.ru/pdf-viewer/?uid=c394754c-f589-47ae-8e48-63c50cf9b877>
3. Samuelson, P. Copyright's Fair Use Doctrine and Digital Data. Publishing Research Quarterly, 1995, Vol. 11, pp. 27–39. // URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/BF02680415>
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi 20.07.2006-yildagi O'RQ–42-son Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. Heidi Härkönen, "A Narrative Approach to the Standard of Originality in EU Copyright Law: The Story of a Dress", IIC, 2025, Vol. 56, pp. 289–319. // URL: https://www.researchgate.net/publication/388664300_A_Narrative_Approach_to_the_Standard_of_Originality_in_EU_Copyright_Law_The_Story_of_a_Dress
6. Qo'chqorov A. "Intellektual mulk obyekti sifatida amaliy san'at asarlari." Yurist axborotnomasi, 2026, 1-jild, 1-son, 92-98-betlar. // URL: <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/1187>
7. Hua, J. J. Copyright Protection of Works of Applied Art: Rethinking Conceptual Separability and Aesthetic Requirement for Copyrightability. Journal of Intellectual Property Law & Practice, 2017. // <https://dl1.icdst.org/pdfs/files3/f59b2690461d9f38456ce52bf1316c44.pdf>.
8. Rosati, E. Copyright at the CJEU: Back to the Start (of Copyright Protection). Oxford University Press, 2023, pp. 211–228.

9. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida Berna konvensiyasi (Bern, 1886 yil 9 sentabr) // <https://lex.uz/docs/-1310607>.
10. Jane C. Ginsburg, The Most Moral of Rights: The Right to Be Recognized as the Author of One's Work, George Mason Journal of International Commercial Law, 2016. // URL: https://scholarship.law.columbia.edu/faculty_scholarship/1988/
11. Cyrill P. Rigamonti, The Conceptual Transformation of Moral Rights, American Journal of Comparative Law, 2007. // URL: https://www.researchgate.net/publication/294345243_The_conceptual_transformation_of_moral_rights
12. William W. Fisher III, Theories of Intellectual Property, Cambridge University Press, 2001. // URL: <https://dash.harvard.edu/entities/publication/73120379-033d-6bd4-e053-0100007fdf3b>
13. Mayfield, Kendra. "Cheating's Never Been Easier." WIRED, 4 September 2001. // URL: <https://www.wired.com/2001/09/cheatings-never-been-easier/>
14. Rudolf Leška, Presumption of Authorship under the Berne Convention and its Application in the Online Environment. // https://www.researchgate.net/publication/351361810_Presumption_of_Authorship_under_the_Berne_Convention_and_its_Application_in_the_Online_Environment.
15. Lee, Moon Hee, "Seeing's Insight: Toward a Visual Substantial Similarity Test for Copyright Infringement of Pictorial, Graphic, and Sculptural Works", April 1, 2017. // <https://northwesternlawreview.org/issues/seeings-insight-toward-a-visual-substantial-similarity-test-for-copyright-infringement-of-pictorial-graphic-and-sculptural-works/>.

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL